

Mamlakat Mamadaliyeva Qaxramon qizi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti
Gmail:

www.bekmurodbehruzgmail.com

O'zbek-turk bolalar o'yinlarida insonlar obrazi

Annotatsiya: Folklor- har bir xalqning madaniyatini, marosim va urf-odatlarini ko'rsatib beruvchi xazinadir. Uning turfa xil janrlari insonlarning orzu-o'ylari va falsafiy xulosalarini o'zida aks ettirgan. Bu kabi ezgu maqsadlar bolalar folklorida muhim ahamiyat kasb etgan. Bevosita ezgu g'oyalar insonlar obrazi orqali bo'y ko'rsatgan.

Kalit so'zlar: marosim, qo'g'irchoq, kelin obrazi, an'anaviylik, obraz

Мамлакт Мамадалиева – докторантка Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои.

Gmail:

www.bekmuradbehruzgmail.com

Образ человека в узбекско-турецких детских играх.

Аннотация: Фольклор – это сокровище, отражающее культуру, обряды и традиции каждого народа. Его различные жанры отражают мечты людей и философские выводы. Такие благородные цели важны в детском фольклоре.

Непосредственно хорошие идеи проявляются через образы людей.

Ключевые слова: обряд, кукла, образ невесты, традиционность, образ.

Mamlakt Mamadaliyeva is a doctoral student of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

Gmail:

www.bekmuradbehruzgmail.com

The image of people in Uzbek-Turkish children's games

Abstract: Folklore is a treasure that shows the culture, rituals and traditions of every nation. His various genres reflect people's dreams and philosophical conclusions. Such noble goals are important in children's folklore. Directly, good ideas are shown through the image of people.

Key words: ceremony, doll, image of the bride, traditionality, image

Kirish

Bolalar folklorini tashkil etuvchi janrlar bolalarning o'zlari yoki ular uchun kattalar tarafidan yaratilgan. Bu janrlar yaratilishida ijtimoiy hayotning ta'siri juda yuqori. Bolalar o'zlari uchun kashf etgan bolalar o'yinlarida ham millatlarga xos urf-odat, marosimlar, ijtimoiy muhit o'z aksini ko'rsatgan. Bolalarning ba'zi o'yinlari kattalarga taqlid tarzida bo'lib, ular jamiyatdagi turli insonlar obrazlarini bu o'yinlarga olib kirishgan.

Adabiyotlar tahlili

O'zbek folklorshunosligida bolalar folklorini to'plash va ilmiy o'rganishning boshlanishida G'ozzi Olim Yunusovning "Alla to'g'risida bir-ikki og'iz so'z" maqolasi alohida qimmat kasb etdi.¹ XX asr boshlarida asosiy kasbi o'qituvchi bo'lgan Elbek ta'limda bolalar xalq qo'shiqlaridan foydalanish maqsadida ularni yig'ishga e'tibor qaratdi va to'plagan materiallari asosida "Bolalik qo'shiqlari" (1936) to'plamini e'lon qildi.² O'zbek bolalar folklorining nazariy asoslari G'.Jahongirov, O.Safarov, H.Ro'zmetov, Sh.Galiyev, N.Safarova, S.Avezovlarning tadqiqotlari orqali birmuncha chuqur ishlendi.³ Bolalar folklori yigirmadan ortiq janrni o'z ichiga olgan katta tizim ekanligini O.Safarov asoslab bergan.

Tadqiqot metodologiyasi

O'zbek va turk bolalar o'yinlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan. Ularda mavjud insonlar obrazi atroflicha tahlilga tortilgan. Maqolada qiyosiy-tipologik, badiiy tahlil va chog'ishtirma, struktural, etnofolkloristik metodlardan unumli foydalanildi.

Tahlillar va natijalar

Milliy qadriyatlarimizning o'ziga xos jihatlarini bolalar o'yinlarida ham ko'rishimiz mumkin. Ba'zi bolalar o'yinlari bevosita to'y marosimi asosida

¹ Yunusov G'.O. Alla to'g'risida bir-ikki og'iz so'z // Maorif va o'qituvchi. – Toshkent, 1926. – № 6. – B. 25-26

² Amonov U. XX asr boshlarida o'zbek folklorining o'rganilish tarixi (Abdurauf Fitrat, G'ozzi Olim Yunusov va Elbek faoliyati misolida): filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2018. – B. 87

³ Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. – Toshkent: O'qituvchi, 1975. – 122 b.; Safarov O. Bolalarni erkalovchi o'zbek xalq qo'shiqlari. – Toshkent: Fan, 1983. – 88 b.; Safarov O. O'zbek bolalar poetik folklori. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. – 250 b.

yaratilgan. Chunki to‘ylarda “Har bir xalqning tarixi, maishiy hayot in’ikosi hamda ma’naviy qiyofasini ko‘rish mumkin.”⁴ O‘zbek to‘y marosimlarini bevosita aks ettirgan “Kelin tushirdi” bolalar o‘yini bunga yorqin misol bo‘la oladi. Bu o‘yinda qizlar yig‘ilib, qo‘g‘irchoq yasashadi. Va ulardan birini “kelin” holiga keltirishadi, ya’ni oq ro‘mol yopib, (ba’zan qizil ro‘mol) uni boshqa xonadonga (ya’ni qo‘shninikiga) yor-yor aytib, tashlab chiqishadi.

Osmonda oy
Yor-yor
Oy oldida
Bir jonon
Kelinchakning ro‘moli-yeyyy
Oq dokadan-ooo
Yor-yor
Chumolig‘ing chipchirg‘a
Chipchirg‘a-yo
Yor-yor
Chipchirg‘aning ichida-yeyy
Bu nimosi?⁵
Yor-yor.

Ushbu bolalar o‘yini to‘y marosimlarining o‘yinga xoslangan janriy ko‘chishdir. Ushbu qizlar o‘yini orqali qizaloqlar qalblaridagi shirin orzularining ro‘yobini ko‘rishadi. Shuning uchun ham “yor-yor” qo‘shig‘ini baralla kuylashadi. Bu o‘yindagi kelin obrazi qizlarning qalblaridagi go‘zallik timsolini qo‘shiq vositasida ko‘rsatib beradi.

“Qiz va qushchalar” o‘yinidagi ona va qiz obrazi oiladagi munosabatlarni o‘zida aks ettirgan. Guljahon Mardonova Qarshi tumanidagi Chorag‘il qishlog‘idan yozib olgan bu o‘yin “ona”ning bozorga ketishi bilan boshlanadi. Ona bozorga ketishdan oldin, tuguncha to‘la yumshoq koptokchalarni joy-joyiga

⁴ Aliqulova H. O‘zbek va qozoq yor-yorlarining qiyosiy tipologik tahlili: Filol.fan. falsafa doktori (PhD) ... diss. – Toshkent, 2024

⁵ Namangan viloyati Namangan shahrida yashovchi Abdulhayeva Aziza onadan 2024-yilda M. Mamadaliyeva yozib olgan.

qo'yishni "qizi"ga topshiradi. Qizi esa berilgan ishni bajarmay, hovlidagi "qushlar" bilan suhbatga berilib ketadi. "Ona"ning bozordan qaytishini ko'rgan qushlar uni chalg'itishga harakat qilishadi. "Qushlar" "ona"ga turli xil o'yinlarni taklif qilishadi, "ona" ular bilan o'ynaydi. Bu vaqtda qiz topshiriqni tezlik bilan bajaradi.⁶ Bu o'yindan ko'rinadiki, xalqimiz qiz bolaning tarbiyasiga jiddiy e'tibor berishgan. Ona qizining yoshligidanoq hayotga tayyorlab borayotgani aks etgan. Qizning epchil, chaqqon bo'lishi lozimligi aks ettirilgan. Bundan tashqari, "ona"ning chalg'itish uchun o'ynaladigan milliy o'yinlarimiz, o'z qadriyatlarimizni yodda tutishga yordam beradi. "Bu o'yin to'liq voqeabanddir. Undagi ona, qiz va qushlar obrazining mukammal ijro etilishi bolalarda san'atga bo'lgan mehrni uyg'otadi."⁷ Eng asosiysi, ona qizining kelajakda epchil, chaqqon, pazzanda bilimli kelin bo'lishi uchun uy ishlarini sabr bilan o'rgatadi va shuning uchun ham topshiriqlarni bajarishi uchun vaqt belgilaydi. Xuddi shunday kelin obrazi Turk bolalar folklorida ham mavjud. Bu o'yinning nomi "Yamğur gelini"⁸ Bu o'yinda sanama orqali "kelin" tanlab olinadi. Bu o'yindagi "kelin" obrazi turkiy xalqlardagi iboli, hayoli shaxsdir. U turkiy xalqlar kabi boshiga oq ro'mol yopingan, sochlari yashil daraxt sochlari bilan bezatilgan bo'ladi. Ushbu kelin oddiy kelin emas, u Yomg'ir kelinidir. Bilamizki, yomg'ir baraka ramzi. Shuning uchun yomg'ir kelini kirib borgan har bir uyga u bilan birga xayr-barakalar kiradi. Buning hurmatidan esa uy bekari ularni quruq qaytarishmaydi. "Yomg'ir kelini" istagan narsasini berishadi. Masalliq larni to'plagan bolajonlar uni pishirish uchun bir ishtirokchining uyiga borishadi. Taomlanish bilan birga, Allohdan yomg'ir yog'ishini so'rab duo qilishadi. Yuqorida keltirilgan ikkala o'yinda kelin obrazlari yaqqol ko'rsatilgan. Ularning ijtimoiy hayotdagi rollari ahamiyatga molik ekanligi aks ettirilgan. Ikki millatda ham kelin obrazi borgan joyiga baraka keltirishi, u go'zallikni o'zida aks ettirishi, insonlar yangi kelinchakka havas bilan qarashlari o'z aksini topgan. "Xola" obrazini asosiy darajaga ko'targan "Xola-xola" o'yini ham mehmon kutish odoblarini o'rgatadi. Bu o'yin Namangan viloyati, Pop

⁶ Mardonova.G.O'zbek milliy o'yinlari.Booknomy Print. Toshkent.2022.B-99

⁷ Yuqoridagi manba:B-100

⁸ M.Öcal Oğuz,Petek Ersoy Türkiye'de 2004 yılında yaşayan geleneksel çocuk oyunları.Ankara.2005. B-80

tumanida yashovchi Qosimova Hamidadan yozib olingan. O‘yinining nomi nega bunday? Bu haqida turli qarashlar mavjud. Qiz bola uchun eng yaqin kishilardan biri bu uning xolasidir. Bu o‘yin qizlar tomonidan o‘ynaladi. Ular bir-birlarinikiga mehmonga borishib, dasturxonga turli xil mahsulotlarni qo‘yishadi. Dasturxon ustida suhbat qilishadi. Folklorshunos Hulkaroy Aliqulovanning aytishicha, qizaloqlar oyisining dugonalarini “xola” deb atashadi. Shuning uchun bu o‘yin mehmondorchilikka oid hisoblanadi.

Yangiqo‘rg‘on tumanida yashovchi Fotima Erkinovanning aytishicha esa “xola” onaning eng yaqin kishisidir. Qizlar uchun onalardan keyin, albatta, xolalar sirdosh hisoblanadi. O‘zbekistonning ba’zi viloyatlarida bu o‘yin “Bola-bola” deb ham yuritiladi. Unda qizaloqlar ona va bola o‘rtasidagi suhbatlar asosida o‘yin tashkil qilishadi. Bu kabi o‘yinlar qiz bolalarni go‘zal tarbiyalanishiga zamin bo‘ladi.

“Bebek bakma” o‘yini ham turk qizaloqlarining bolalar tarbiyasiga jiddiy e‘tibor berish kerakligi haqida ma’lumotlar beradi. Bu o‘yinda ona o‘z farzandiga qo‘g‘irchoq orqali bola parvarishini o‘rgatadi. Qo‘g‘irchoq yig‘laganda qanday ko‘tarish, uni ovutish, ovqatlantirish, sochlarini tarash hamda qanday uxlatish kerakligini asta sekin ko‘rsatib beradi.⁹ Bu esa onaning eng asosiy vazifasi farzand tarbiyasi ekanligini oson yo‘l bilan tushuntirishdir.

Xulosalar

Bolalar o‘yinlari vaqtni qiziqarli o‘tkazish bilan birga o‘z davrining ijtimoiy hayoti, undagi insonlarning bir-birlariga munosabati, o‘sha davrdagi urf-odatlar, marosimlarni ham o‘zida aks ettiradi. Birgina “Xola-xola” o‘yini qizlarimizda qo‘shniga murojaat qilish, mehmon kutish va uni e‘zozlash, o‘zbekona dasturxon bezash kabi odoblarni o‘rgatadi. Bundan ko‘rinadiki, har bir bolalar o‘yini shunchaki o‘yin emas, balki hayotni o‘rgatuvchi, bilimlar ulashuvchi tuganmas xazinadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

⁹ <https://youtube.com/watch?v=8ozEiNmMLWc&feature=shared>

1. Yunusov G'.O. Alla to'g'risida bir-ikki og'iz so'z // Maorif va o'qitg'uvchi. – Toshkent, 1926. – № 6. – B. 25-26
2. Amonov U. XX asr boshlarida o'zbek folklorining o'rganilish tarixi (Abdurauf Fitrat, G'ozli Olim Yunusov va Elbek faoliyati misolida): filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Toshkent, 2018. – B.167
3. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. – Toshkent: O'qituvchi, 1975. – 122 b.; Safarov O. Bolalarni erkalovchi o'zbek xalq qo'shiqlari. – Toshkent: Fan, 1983. – 88 b.; Safarov O. O'zbek bolalar poetik folklori. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. – 250 b.
4. Aliqulova H.O'zbek va qozoq yor-yorlarining qiyosiy tipologik tahlili: Filol.fan. falsafa doktori (PhD) ... diss. – Toshkent, 2024
5. Namangan viloyati Namangan shahrida yashovchi Abdulhayeva Aziza onadan 2024-yilda M.Mamadaliyeva yozib olgan.
6. Mardonova.G.O'zbek milliy o'yinlari.Booknomy Print. Toshkent.2022.B-99
7. M.Öcal Oğuz,Petek Ersoy Türkiye'de 2004 yılında yaşayan geleneksel çocuk oyunları.Ankara.2005. B-80
8. <https://youtube.com/watch?v=8ozEiNmMLWc&feature=shared>